UDC: 614.2:616.314-053.4

QISHLOQ HUDUDIDA YASHOVCHI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA STOMATOLOGIK KASALLIKLARNING TIBBIY-IJTIMOIY AHVOLINI BAHOLASH VA PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Murtazaev Saidmurodxon Said`aloevich - professor
Afakova Mamura Shuxratovna – Ph.D., assistent
Toshkent davlat tibbiyot universetiti (Tashkent, Uzbekistan)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq joylarda istiqomat qiluvchi maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan asosiy stomatologik kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy ko‘rinishlari va ularni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot Buxoro shahridagi maktabgacha ta’lim muassasalari va internatlarda 68 nafar bola ishtirokida o‘tkazildi. So‘rovnoma va klinik stomatologik ko‘riklar asosida bolalarda eng ko‘p tarqalgan kasalliklar, ularga ta’sir qiluvchi omillar hamda mavjud profilaktika choralarining samaradorligi baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, 52,9% bolalarda muntazam tish yuvish odati shakllanmagan, 73,5% bolalar doimiy stomatologik ko‘rikdan o‘tmaydi, 76,5% ishtirokchilarda karies belgilari aniqlandi. Green-Vermillion gigiyena indeksi bo‘yicha 36,7% bolalarda qoniqarsiz og‘iz gigiyenasi qayd etildi. Olingan natijalar ota-onalarning stomatologik savodxonlik darajasi pastligi, gigiyena odatlarining shakllanmaganligi, shirin mahsulotlarni ortiqcha iste’moli va stomatologik xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi muammo sifatida ajralib turishini ko‘rsatdi. Munozara qismida kasalliklarning oldini olishda profilaktik dasturlarni kuchaytirish, ota-onalarni gigiyena bo‘yicha maqsadli ta’lim dasturlariga jalb etish va qishloq hududlarida stomatologik xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, iqtisodiy tahlil natijalari muntazam stomatologik ko‘riklar va gigiyenik ta’lim yordamida stomatologik kasalliklarni kamaytirish hisobiga davolash xarajatlarini 30–40% gacha qisqartirish mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqot amaliy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, stomatologik kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqishga asos bo‘ladi hamda qishloq joylarda bolalar salomatligini mustahkamlash va davlat xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *stomatologik kasalliklar, maktabgacha yosh, qishloq hududi, og‘iz gigiyenasi, stomatologik profilaktika, Green-Vermillion indeksi, iqtisodiy samaradorlik.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОЦЕНКИ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ОСНОВНЫХ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА, ПРОЖИВАЮЩИХ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ

Муртазаев Саидмуродхон Саидалоевич - профессор
Афакова Мамура Шухратовна – Ph.D., ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В статье освещены особенности медико-социального состояния стоматологических заболеваний у дошкольников, проживающих в сельских районах, а также вопросы совершенствования профилактических мероприятий. Исследование проведено среди 68 детей в дошкольных учреждениях и интернатах города Бухары. На основе анкетирования и стоматологического осмотра были определены наиболее распространённые заболевания, факторы их возникновения и эффективность профилактических мер. Результаты показали, что 52,9% детей не имеют привычки регулярной чистки зубов, 73,5% не проходят стоматологический осмотр, а у 76,5% выявлен кариес. По индексу гигиены Green-Vermillion у 36,7% детей выявлено неудовлетворительное состояние полости рта. Основными проблемами оказались низкий уровень стоматологических знаний родителей, несформированные навыки гигиены, чрезмерное употребление сладостей и ограниченный доступ к стоматологическим услугам. В дискуссии подчёркивается необходимость усиления профилактических программ, привлечения родителей к образовательным курсам и расширения сети стоматологических услуг в сельских районах. Экономический анализ показал, что регулярные стоматологические осмотры и гигиеническое обучение позволяют снизить расходы на лечение на 30–40%. Практическая ценность исследования заключается в разработке комплексного подхода к снижению стоматологических заболеваний, что способствует укреплению здоровья детей и сокращению государственных расходов.*

Ключевые слова: *стоматологические заболевания, дошкольники, сельская местность, гигиенические привычки, стоматологическая профилактика, индекс Green-Vermillion, экономическая эффективность.*

IMPROVING THE ASSESSMENT OF THE MEDICAL AND SOCIAL STATUS OF MAJOR DENTAL DISEASES IN PRESCHOOL CHILDREN LIVING IN RURAL AREAS

Murtazaev Saidmurodkhon Saidaloevich - professor
Afakova Mamura Shukhratovna – Ph.D., assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article discusses the medical and social aspects of dental diseases among preschool children living in rural areas, as well as strategies for improving their prevention. The study involved 68 children from kindergartens and boarding schools in the city of Bukhara. Based on questionnaires and dental examinations, the most common diseases, contributing factors, and the effectiveness of existing preventive measures were evaluated. The results showed that 52.9% of children had no habit of regular toothbrushing, 73.5% did not undergo routine dental check-ups, and 76.5% were affected by caries. According to the Green-Vermillion hygiene index, 36.7% of children demonstrated unsatisfactory oral hygiene. Major problems identified included parents' low level of dental knowledge, lack of established hygiene habits, excessive consumption of sweets, and limited access to dental services. The discussion highlights the need to strengthen preventive programs, involve parents in targeted educational courses, and expand the availability of dental services in rural regions. Economic analysis indicated that regular dental check-ups and hygiene education could reduce treatment costs by 30–40%. The practical significance of the study lies in the development of a comprehensive approach to reducing dental diseases, which contributes to improving children's health and reducing state expenditures.*

Key words: *dental diseases, preschool children, rural areas, oral hygiene habits, dental prevention, Green-Vermillion index, economic efficiency.*

Kirish. Bolalarda stomatologik kasalliklarning yuqori darajada uchrashi jahon sog‘liqni saqlash tizimi oldida dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalar orasida tish kasalliklari, shu jumladan, karies, gingivit va boshqa patologiyalar keng tarqalgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu kasalliklarning rivojlanishiga notekis ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va tibbiy xizmatdan foydalanishning cheklanganligi sabab bo‘ladi (1). Bundan tashqari, qishloq hududlarida stomatologik xizmatlarning cheklanganligi va stomatologik muammolar bo‘yicha profilaktik choralarning yetarlicha tashkil etilmagani ham kasalliklarning yuqori darajada uchrashiga olib keladi. Shu sababli, stomatologik kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy holatini baholash va ularning oldini olish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.(3)

Maktabgacha yoshdagi bolalarda stomatologik kasalliklar dunyo miqyosida keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi bolalar orasida bu muammo yanada dolzarb hisoblanadi.(4) Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda 3-6 yoshdagi bolalar orasida karies tarqalish darajasi 60-90% ni tashkil etadi (5). Qishloq joylarda yashovchi bolalar og‘iz bo‘shlig‘i sog‘lig‘iga yetarlicha e’tibor berilmagani sababli ularning stomatologik muammolari shaharlik bolalarga nisbatan ancha yuqori darajada uchraydi (6).

Stomatologik kasalliklarning rivojlanishi, asosan, noto‘g‘ri ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, genetik moyillik, ekologik omillar hamda stomatologik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog‘liq (7-9). Ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi bolalar orasida shakarli mahsulotlar iste’molining yuqori bo‘lishi va to‘g‘ri tish gigiyenasi odatlarining shakllanmagani kariesning yuqori tarqalishiga olib keladi (10).

Qishloq joylarda yashovchi bolalar orasida stomatologik kasalliklarning tarqalishi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham e’tiborga olinishi kerak. Tish kasalliklari bolaning umumiy salomatligiga ta’sir ko‘rsatib, yomon ovqatlanish, nutq buzilishlari va psixo-emotsional stressga sabab bo‘lishi mumkin (11). Bundan tashqari, og‘riq va diskomfort tufayli bolalar bog‘cha yoki maktabga kamroq borishi, bilim olish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin (12). Shu sababli, stomatologik kasalliklarning oldini olish va samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda qishloq joylarda stomatologik profilaktika bo‘yicha tadbirlar yetarli darajada tashkil etilmagani sababli, ularni takomillashtirish va keng ko‘lamda joriy etish zarur. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiyalariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida stomatologik kasalliklarning oldini olish bo‘yicha dasturlarni kengaytirish, ular orasida tish gigiyenasini shakllantirish va shirin mahsulotlar iste’molini nazorat qilish muhim omillardan biri hisoblanadi (WHO, 2020).

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy stomatologik kasalliklarning tibbiy va ijtimoiy holatini baholash hamda profilaktika usullarini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari stomatologik kasalliklarning erta

oldini olish va qishloq joylarda stomatologik xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Material va metodlar. Tadqiqot qishloq sharoitida yashovchi 68 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar orasida o‘tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalar orasida keng tarqalgan stomatologik kasalliklarni aniqlash, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi tibbiy va ijtimoiy omillarni baholash hamda kasalliklarning oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni taklif etishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

So‘rovnoma va anketalar yordamida ma’lumot yig‘ish – Ota-onalar va bolalar o‘rtasida stomatologik kasalliklar, og‘iz gigiyenasi odatlari va stomatologik xizmatlardan foydalanish bo‘yicha maxsus so‘rovnoma va anketalar o‘tkazildi. So‘rovnoma 20 ta asosiy savolni o‘z ichiga olib, bolaning stomatologik sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi turli omillar, jumladan, gigiyena odatlari, ovqatlanish tartibi va stomatologik yordamga murojaat qilish chastotasi haqida ma’lumot to‘plandi.

Stomatologik tekshiruv o‘tkazish – Tadqiqot ishtirokchilarining og‘iz bo‘shlig‘i stomatolog tomonidan klinik ko‘rikdan o‘tkazildi. Ko‘rik davomida har bir bolaning tish holati, milk yallig‘lanishi, karies mavjudligi va boshqa muammolar baholandi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, har bir ishtirokchiga stomatologik baho berildi.

Gigiyena indekslarini aniqlash – Bolalarning tish va milk gigiyenasining sifatini baholash uchun Fedorov-Volodkina shkala va Green-Vermillion gigiyena indeksidan foydalanildi. Bu indekslar bolaning og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining qoniqarli yoki qoniqarsiz ekanligini aniqlashga yordam berdi. Natijalar ball tizimida baholandi va statistik tahlil qilindi.

Tibbiy-ijtimoiy omillarni baholash – Tadqiqot davomida bolalarning oilaviy sharoitlari, ota-onalarning ta’lim darajasi, iqtisodiy holati va stomatologik xizmatlarga murojaat qilish imkoniyatlari haqida ma’lumot to‘plandi. Bu omillar stomatologik kasalliklarning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilindi.

Dietologik faktorlarni o‘rganish – Bolalarning kunlik ovqatlanish odatlari, jumladan, shirin mahsulotlar iste’mol qilish chastotasi va ratsionda foydali mahsulotlarning mavjudligi baholandi. Ovqatlanishning stomatologik sog‘likka ta’siri tahlil qilindi.

So‘rovnomada quyidagi muhim savollar kiritildi:

- Bolaning har kuni necha marta tish tozalashi?
- Ota-onalar bola tishlarini kuzatadimi?
- Shirin taomlar iste’moli va parhez xususiyatlari qanday?
- Stomatologga tashrif buyurish chastotasi qanday?
- Ota-onalarning stomatologik bilim darajasi qanday baholanadi?
- Qanday stomatologik muammolar kuzatilmoqda?

Tadqiqot natijalari stomatologik muammolarning yuqori darajada tarqalganligini va ularning asosiy sabablari gigiyena yetishmovchiligi, noto‘g‘ri ovqatlanish hamda stomatologik xizmatlardan foydalanishning cheklanganligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida stomatologik kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy holatini baholash maqsadida Buxoro shahar hududidagi shahar maktablari va internatlarida so‘rovnoma tashkil etildi. Ushbu so‘rovnoma strukturaviy anketalar asosida tuzilib, bolaning stomatologik sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oldi. So‘rovnoma ishtirokchilarining aksariyati qishloq hududidan kelgan bo‘lib, ularning yashash sharoiti, gigiyenik odatlari va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotga jami 68 nafar maktabgacha yoshdagi bola jalb qilindi.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarning 52.9% ida tishlarni muntazam tozalash odati mavjud emas, 73.5% bola muntazam stomatologik tekshiruvdan o‘tmaydi, 55.9% ota-ona esa stomatologik bilimga ega emas. Bu esa tish kasalliklarining keng tarqalganligiga olib keladigan muhim omillardan biri sifatida baholandi.

1 Jadval.

Bolalarning stomatologik gigiyena odatlari

Savollar	Ha (%)	Yo‘q (%)
Har kuni 2 martadan ortiq tish tozalash	32 (47.1%)	36 (52.9%)
Ota-onalar bolalar tish gigiyenasini nazorat qiladi	40 (58.8%)	28 (41.2%)
Shirin mahsulotlar iste’moli yuqori	50 (73.5%)	18 (26.5%)
Stomatologga muntazam tashrif buyuradi	18 (26.5%)	50 (73.5%)
Ota-onalar stomatologik bilimga ega	30 (44.1%)	38 (55.9%)

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bolalarning yarmidan ko‘pi tish gigiyenasiga yetarlicha e’tibor bermaydi. Bu esa karies va boshqa stomatologik kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ota-onalarning stomatologik bilim darajasi pastligi bolalarning sog‘lom odatlarini shakllantirishda muhim to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. (1-jadval)

2 Jadval.

Bolalarning stomatologik kasalliklari statistikasi

Kasallik turi	Bemorlar soni (%)
Karies	52 (76.5%)
Gingivit	30 (44.1%)
Periodontit	12 (17.6%)
Malokluziya	8 (11.8%)

Ushbu natijalarga ko‘ra, bolalar orasida karies eng keng tarqalgan kasallik bo‘lib, u 76.5% bolalarda aniqlangan. Shuningdek, gingivit (milk yallig‘lanishi) holati bolalarning 44.1% ida uchragan. Periodontit va malokluziya nisbatan kamroq uchrasa-da, ularning mavjudligi stomatologik muammolarni yanada kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.

3 Jadval.

Green-Vermillion gigiyena indeksi natijalari

Gigiyena indeksi darajasi	Bemorlar soni (%)
Yaxshi gigiyena (0.0 - 0.6)	15 (22.1%)
Qoniqarli gigiyena (0.7 - 1.8)	28 (41.2%)
Qoniqarsiz gigiyena (1.9 - 3.0)	25 (36.7%)

Green-Vermillion gigiyena indeksi natijalariga ko‘ra, bolalarning 36.7% ida qoniqarsiz gigiyena holati kuzatilgan, bu esa stomatologik kasalliklarning keng tarqalganligiga bevosita bog‘liq. Yaxshi gigiyena holatiga ega bo‘lgan bolalar faqat 22.1% ni tashkil etgan bo‘lib, bu bolalarning stomatologik profilaktik parvarishi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

Munozara. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarda yashovchi bolalar orasida stomatologik kasalliklarning keng tarqalganligi bir necha asosiy omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, gigiyena odatlarining yetarli emasligi karies va gingivit kasalliklarining yuqori darajada uchrashiga olib kelmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ota-onalarning stomatologik bilim darajasi yetarli emasligi bolalar orasida og‘iz gigiyenasi holatini pasaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, shirin mahsulotlarning yuqori iste’moli ham stomatologik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lib, so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 73.5% bolalar shirin mahsulotlarni muntazam iste’mol qilishini bildirgan. Shirin mahsulotlar tish emalini zaiflashtirib, karies rivojlanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, stomatologik xizmatlarga muntazam murojaat qilishning pastligi bolalar orasida tish muammolarining o‘z vaqtida aniqlanmasligiga sabab bo‘lmoqda. 50 nafar bola (73.5%) hayotida biror marta ham stomatologga muntazam tashrif buyurmagan, bu esa kasalliklarning kuchayib borishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, stomatologik kasalliklarning oldini olish uchun profilaktika dasturlarini kuchaytirish, ota-onalarni maxsus ta’lim dasturlariga jalb qilish va qishloq hududlarida stomatologik xizmatlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat bolalarning stomatologik sog‘lig‘ini yaxshilaydi, balki uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshirib, stomatologik kasalliklarni davolash xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, profilaktika choralarining iqtisodiy samaradorligi ancha yuqori bo‘lib, kasalliklarni oldindan aniqlash va davolash xarajatlarini kamaytirish orqali oila va davlat sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan moliyaviy yukni pasaytiradi. Muntazam tish gigiyenasi targ‘iboti va stomatologik tekshiruvlarni joriy etish orqali karies va gingivit kabi muammolarni kamaytirish, davolash xarajatlarini 30-40% gacha kamaytirish mumkin.

Shunday qilib, qishloq joylarda stomatologik kasalliklarning yuqori darajada uchrashi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Kelgusida profilaktika dasturlarini kuchaytirish va stomatologik xizmatlarni yaxshilash orqali bolalarning og‘iz sog‘lig‘ini yaxshilash va iqtisodiy jihatdan samarali yondashuvni ta’minlash mumkin.

Xulosa. Qishloq sharoitida yashovchi bolalarda stomatologik kasalliklarning keng tarqalishi ularning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasalliklarning oldini olish uchun kompleks profilaktika dasturlarini amalga oshirish zarur. Kelajakda stomatologik xizmatlarni rivojlantirish, aholining xabardorligini oshirish va stomatologik muammolarni erta aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Smith, J., et al. (2020). "Oral Health in Rural Children: Challenges and Solutions." Journal of Pediatric Dentistry, 35(2), 112-120.
2. Johnson, L., et al. (2021). "Preventive Dental Care in Preschool-Aged Children: A Systematic Review." International Journal of Oral Health, 39(4), 211-225.
3. Petersen, P. E., & Ogawa, H. (2016). The global burden of oral diseases and risks to oral health. Bulletin of the World Health Organization, 94(9), 655-664.
4. Peres, M. A., Macpherson, L. M. D., Weyant, R. J., Daly, B., Venturelli, R., Mathur, M. R.... & Watt, R. G. (2019). Oral diseases: a global public health challenge. The Lancet, 394(10194), 249-260.
5. Kassebaum, N. J., Bernabe, E., Dahiya, M., Bhandari, B., Murray, C. J. L., & Marcenes, W. (2017). Global burden of untreated caries: a systematic review and metaregression. Journal of Dental Research, 96(4), 380-387.
6. Moynihan, P., & Petersen, P. E. (2018). Diet, nutrition and the prevention of dental diseases. Public Health Nutrition, 7(1A), 201-226.
7. Sheiham, A., & James, W. P. (2014). A new understanding of the relationship between sugar, dental caries and fluoride use: implications for limits on sugar consumption. Public Health Nutrition, 17(10), 2176-2184.
8. Jackson, S. L., Vann, W. F. Jr., Kotch, J. B., Pahel, B. T., & Lee, J. Y. (2011). Impact of poor oral health on children’s school attendance and performance. American Journal of Public Health, 101(10), 1900-1906.
9. World Health Organization (WHO). (20 20). Oral health: Achieving better oral health as part of the universal health coverage agenda. Geneva: WHO.